

## 2019 yil yanvar-iyun oylarida ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida 18 082,4 mlrd so`m asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 137,1% ni tashkil etdi. Ularning 39,8 %i yoki 7 189,4 mlrd. so`m korxonalar, tashkilot va aholining o`z mablag`lari hisobidan moliyalashtirilgan bo`lsa, o`zlashtirilgan boshqa mablag`lar hisobidan 60,2 %i yoki 1 093,0 mlrd. so`m moliyalashtirildi.

Joriy davrda markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi o'tgan yilning mos davridagi ulushiga nisbatan 0,3 % punktga kamayib, 14,7 % ni yoki 2 659,7 mlrd. so`mni tashkil etdi.


**Jami asosiy kapitalga investitsiyalar**  
**hajmi:**  
**18 082,4 mlrd. so`m**

**O`sinh  
sur`ati:**  
**137,1 %**



**Markazlashgan:**  
**2 659,7 mlrd. so`m**


**Markazlashmagan:**  
**15 422,7 mlrd. so`m**



Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 0,4 % punktga ko'payib, 85,3 %ni yoki 15 422,7 mlrd. so`mni tashkil etdi.

O`z mablag`lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida korxonalar va tashkilotlar mablag`lari ulushi salmoqli bo`ldi – 6 282,6 mlrd. so`m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 34,7 %. Aholi mablag`lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 5,0 %i yoki 906,8 mlrd. so`m o`zlashtirildi.

## Moliyalashtirish manbalari bo`yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (jami hajmdagi ulushi, %da)




Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag`lari hisobidan 5137,1 mlrd.so`m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 28,4 %ini tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 4,3 % punktiga ko`payish kuzatildi), to`g`ridan-to`g`ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 3096,3 mlrd.so`m (17,1 % va 3,1 % punktiga ko`payish), O`zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 553,5 (3,1 %), Respublika byudjeti 1361,2 mlrd.so`m (7,5 % va 3,5 % puktiga ko`payish), suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg`armasi 28,9 mlrd.so`m (jamiga nisbatan 0,2 %) hamda tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi hisobidan esa 716 mlrd.so`m (jamiga nisbatan 4%) asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirildi.

## Moliyalashtirish manbalari bo`yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

	mlrd.so`m	O'sish surati, %da	jamiga nisbatan ulishi,%da
Barcha moliyalashtirish manbalarihisobidan	18082,4	137,1	100
Respublika byudjeti	1361,2	257,00	7,5
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	28,9	0	0,2
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	716	55,6	4,0
O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	553,5	0	3,1
Korxonalar mablag'lari	6282,6	116,4	34,8
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	5137,1	162,2	28,4
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	3096,3	168,3	17,1
Aholi mablag'lari	906,8	111,8	5,0


## Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari



Tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish surati 174,8% ko'payish Sergeli tumanida kuzatildi. Bu asosan "O'zshaharqurilishinvest" korxonasi tomonidan qurilayotgan arzon uylar bo'yicha investitsiyalar bilan bog'liq. Yunusobod tumanida ham 153,9 foizga o'sish kuzatilib, bunday natijaga erishilishiga "METROPOLITEN" unitar korxonasi tomonidan ushbu hududda qurilayotgan yangi metro liniyalarini keltirish mumkin. Mirzo Ulug'bek tumanida o'tgan yilning mos davriga nisbatan 148,5 foizga o'sishi kuzatildi asosan ushbu hududda zamonaviy uyla bilan bog'liq. Yashnobod tumanida o'tgan yilning mos davriga nisbatan 136,9 % ga ortiq o'sishi asosan ushbu hududda zamonaviy uylar hamda ishlab chiqarish obyektlarning ko'payishi bilan bog'liq.




## Shahardagi ulishi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilgan hajmi bo'yicha hudular kesimida Sergeli tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 25,2 %i o'zlashtirildi.

Shuningdek, Mirobod tumani ning Toshkent shahri bo'yicha investitsiyalar hajmidagi ulushi 13,3 %ni, Yunusobod tumani - keyingi o'rinda 11,8 % ni tashkil etmoqda.


Chilonzor va Mirzo Ulug'bek tumanlarida ushbu ko'rsatkich mos ravishda 9,8 va 9,4 %ni tashkil etdi. Uchtepa hamda Bektemir tumanlarida investitsiyalar eng kam o'zlashtirilgan bo'lib, har birining shahardagi ulushi 2,5% va 2,3%ni tashkil etdi.




Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha 6 648,5 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar 10 310,0 mlrd.so'm va boshqa xarajatlarga 1 123,9 mlrd. so'm o'zlashtirildi.



## Tumanlar kesimida texnologik tarkibi








Joriy davrda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilishga yo`naltirilgan. Yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalar hajmi 6 517,1 mlrd.so`mni tashkil etib, jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 36,0 %ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish,

rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta quollantirishga yo`naltirilgan investitsiyalar 4 553,8 mlrd.so`mni tashkil etdi va Respublikada jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 25,2 %ini tashkil etdi. Qolgan 38,8 %, yani 7 011,4 mlrd.so`m boshqa xarajatlarga yo`naltirildi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (tumanlar kesmida)



Yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich Chilonzor tumanida kuzatilib, 58,8 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, Yunusobod tumanida 2,3 %, Sergeli tumanida 39,8 % va Yashnabod tumanida 39,0 %ni tashkil etdi.


Ushbu ko`rsatkichning eng past darajasi Bektemir tumanida 16,6 %ni tashkil etdi.

Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya, texnik qayta qurollantirish yo`naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich Bektemir tumanida kuzatilib, 51,8 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, Shayxontoxur tumanida 43.5 %, Mirzo Ulug'bek tumanida 42,6 % va Yakkasaroy tumanida 41,8 %ni tashkil etdi.

Ushbu ko`rsatkichning eng past darajasi Sirg'ali tumanida 3,4 %ni tashkil etdi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishlash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 4 158,3 mlrd.so`m yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 23,0 %i o`zlashtirilgan. Undan keyingi o`rinda - tashish va saqlashda 3 900,4 mlrd. so`m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 21,6 %i o`zlashtirildi.

Qayta ishlash sanoati tarkibida eng ko`p investitsiya o`zlashtirilgan 3 faoliyat turi quyidagilar:

- Oziq-ovqat, ichimlik va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish 904,1 mlrd.so`m (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 5,0 %);
- to'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechak ishlab chiqarish 452,6 mlrd.so`m (2,5 %);
- rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish 278,5 mlrd.so`m (1,5 %).


mlrd.so`m

	Jami investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To`g`ridan - to`g`ri va boshqa investitsiya va kreditlar	shu jumladan:	
		investitsiya	kredit		investitsiya	kredit
<b>Toshkent sh. tumanlar:</b>	<b>3649,8</b>	<b>2187,9</b>	<b>1461,9</b>	<b>3096,3</b>	<b>2187,9</b>	<b>908,4</b>
<b>Bektemir</b>	199,8	199,8	0	199,8	199,8	0
<b>Mirzo Ulug`bek</b>	423,3	388,1	35,2	407,8	388,1	19,7
<b>Mirobod</b>	843,7	340,1	503,6	843,7	340,1	503,6
<b>Olmazor</b>	128,9	121,6	7,3	128,9	121,6	7,3
<b>Sergeli</b>	8,4	8,4	0	8,4	8,4	0
<b>Uchtepa</b>	6,5	6,5	0	6,5	6,5	0
<b>Chilonzor</b>	881,8	516,5	365,3	538,5	516,5	22
<b>Shayxontoxur</b>	404	55,3	348,7	227,2	55,3	171,9
<b>Yunusobod</b>	571,7	388,2	183,5	571,7	388,2	183,5
<b>Yakkasaroy</b>	42	41,8	0,2	42	41,8	0,2
<b>Yashnobod</b>	139,7	121,6	18,1	121,8	121,6	0,2





*Toshkent shahri bo'yicha ishga tushirilgan uy-joylar, ming kv.m.*



- Bektemir
- Mirzo Ulug'bek
- Mirobod
- Olmazor
- Sirg'ali
- Uchtepa
- Chilonzor
- Shayxontoxur
- Yunusobod
- Yakkasaroy
- Yashnabod





Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiy maydoni 388,9 ming kv.m, bo`lgan 1705 ta turar joy obyekti yangi qurilib ishga tushirilgan.

Ishga tushirilgan turar joylarning hududlar kesimida ko`radigan bo`lsak, eng ko`pi Yunusobod tumanida ishga tushirilgan 80,7 ming

kv.m. va u shahar bo`yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 20,8 %ini tashkil etdi. Keyingi o`rinlarda Shayhontoxur va Yashnobod tumanlari egallagan bo`lib, shahar bo`yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 15,3% va 11,1 %ini tashkil etishgan.



**Toshkent shahar statistika  
boshqarmasi Investitsiya va qurilish  
statistikasi bo'limi**

**Nashr uchun mas'ul: B.Shoimqulov**

**Aloqa telefoni: (071) 230-88-18**